
TOJIXON ONA MADUMAROVAGA EHTIROM KO'RSATILDI



“Onalarga ehtirom” festivali Qo'shtepa tumani bo'ylab ko'tarinki ruhda davom etmoqda.

Festival doirasida mahallalarda, har bir tashkilot va ta'lim maskanlarida turli ko'rik-tanlovlar, madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkillanib, dunyodagi eng ulug' zot – Onalarga hurmat va ehtirom ko'rsatilmoqda.

Ana shunday tadbirlardan biri Shakar mahalla fuqarolar yig'ini xodimlari tomonidan Hunarmandlar ko'chasida yashovchi Madumarovlar xonadonida tashkillandi. Tuman hokimi o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i M.Yuldasheva ishtirokida 74 yoshli Tojixon ona Madumarovaga ehtirom ko'rsatildi.

7 nafar komil farzandni tarbiyalab voyaga yetkazgan Tojixon ona Madumarovaning bir etak nevarachevaralari bor. Tadbir davomida onaxonning farzandlari ehtirom ko'rsatishib, dil izhorlarini aytishdi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-05-15 09:47:29